


1. Imloviy jihatdan **to'g'ri** yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.
A) manbaa, tabiiy, sur'at
B) qobiliyat, davo, matbaa
C) daromad, hunar, hotira,
D) qatiiy, ixlos, taajjub
2. Imloviy jihatdan **to'g'ri** yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.
A) kunma-kun, kamdan kam, oy-u quyosh
B) qadam-baqadam, kundan-kun, bola-chaqa
C) ertayu-kech, birma-bir, kamdan kam
D) kun-u tun, dam badam, uyma-uy
3. *Inson ilm-u hunari va aql-idroki bilan har qanday qushdan baland parvoz qiladi.*
Ushbu gap haqidagi **to'g'ri hukmni toping.**
A) Vositali to'ldiruvchining holga tobelanishi kuzatiladi.
B) Ravish holining ot kesimga to'g'ridan to'g'ri tobelanishi kuzatiladi.
C) To'ldiruvchining kelishik va ko'makchilar orqali kesimga tobelanishi kuzatiladi.
D) Sifatlovchi aniqlovchining vositasiz to'ldiruvchiga tobelanishi kuzatiladi.
4. Berilgan she'riy parchadagi **ma'no ko'chish turini aniqlang.**
*Balki, tush ko'rganday qolursiz hayron,
Eshitib Toshkentning sabr-u toqatin.*
A) metafora B) metonimiya
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik
5. Qaysi gapda **maqsad** ravishdoshi **ishtirok etmagan?**
A) Yozda Buxoroga tarixiy qadamjolarini ziyorat qilgani bordik.
B) Alisher onasini ko'rgani keldi.
C) Og'aynisining qishloqqa kelganini eshitib otlandi.
D) Bolalar kitob o'qigani tez-tez kelmoqda.

6. Berilgan she'riy parcha haqidagi to'g'ri hukmni toping.
*Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.*
A) She'riy parchada muqayyad qofiya qo'llangan.
B) She'riy parchada r tovush raviv vazifani bajargan.
C) She'riy parchada tazod san'atidan foydalanilgan.
D) She'riy parchada yig'iq radif qo'llangan.
7. Har uchala birikmadagi ajratib ko'rsatilgan so'z bilan ma'nodoshlik hosil qiluvchi so'zni aniqlang.



- A) haqiqiy B) katta C) mashhur D) boy

8.

Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi haqidagi qaysi mulohazalar to'g'ri hisoblanadi?

- 1, Temur Malik Qadog'on no'yonni bir ko'zidan mahrum qilgan edi.
 2. Asarda xiyonatkor obrazlar sifatida amir Badriddin va Yaroqbekni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.
 3. Jaloliddin uzuk voqeasidan so'ng Yaroqbekni o'ldiradi.
 4. Elbors pahlavon Jaloliddinni to'n voqeasida yuz berishi mumkin bo'lgan o'limdan qutqarib qoladi.
- A) 1, 2 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3

9. Mehrobdan chayon romanidagi **Sultonali obraziga mos ta'rif berilgan javobni aniqlang.**
- A) Xonning sodiq odami
 B) Anvardan najot kutgan obraz
 C) Anvarni qo'lga olish uchun xon va uning odamlari tomonidan garovga olingan obraz
 D) O'z xiyonatidan afsuslangan inson obrazi
10. Barcha maqtanchoqlarning birdan bir qismati shuki, ular ertami-kechmi pand yeyishadi ushbu gap haqida to'g'ri hukm toping.
- A) yasama so'zning kesimga to'g'ridan to'g'ri tobelanishi kuzatiladi
 B) aniqlovchining aniqlovchiga tobelanishi kuzatiladi
 C) yasama so'zning yasama so'zga tobelanishi kuzatiladi
 D) aniqlovchilar kesimga to'g'ridan to'g'ri bog'lanishi kuzatiladi
11. Birinchidan , har bir o'quvchi sinf kutubxonasi uchun bittadan kitob olib kelishi

shart.

- Ushbu gap haqidagi *xato* hukmni aniqlang.
- A) gapda shaxs va o'rin-joy oti qatnashgan.
 B) gapda turli turkumga oid fonetik hodisaga uchragan so'zlar qatnashgan.
 C) gapda ot va fe'l turkumiga oid yasamaso'zlar qatnashgan.
 D) gapda turlangan son qatnashgan

12. She'riy parcha haqidagi *to'g'ri* hukmni aniqlang.

*ey dil, diyonatda ajab rasvo sen,
 Insof bila ayt, ishqqa nechun oshno sen?
 Ishq otashi tez erur, sendek shu emas,
 Tuproq chu boshinga yetar bilgo sen.*

- A) irsoli masal sanati qo'llanish kuzatiladi
 B) 1-2-3- misralarda qofiyadosh so'zlar mavjud
 C) baytda muqayyad qofiya qo'llangan
 D) ishq kishini komillikka yetaklashi aytilgan

Matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

TAVSIYANOMA

1. Men, Shomurodov Umibek, 2000-yilda tug'ilganman. hozirda Surxondaryo viloyati Sherobod Education o'quv markazida ona tili va adabiyot fanidan dars beraman.

2. Abdullayev Muhammad Abdulrahmon o'g'li 2005-yilda tug'ilgan. U hozirda men rahbarlik qilayotgan o'quv markazda oliy ta'lim muassasiga kirish uchun tahsil olayapti. M.A. Abdullayev – ilmga chanqoq yigit, u ona tili va adabiyot fanidan tashqari fizika va matematika kabi fanlarni ham yaxshi ko'radi. Uning jamoat ishlarida faol ekanini ham tasdiqlayman. O'quv kursidagi o'quvchilar bilan muomila-munosabati yaxshi. O'zining kamtarligi, xushchaqchaqligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Uning yutuqlari ham talaygina. Xususan, bu yil viloyat fan olimpiadasida ona tili va adabiyot fanidan qatnashib, faxrli birinchi o'rinni oldi.

3. M.A. Abdullayev – kelajakda Vatan rivoji uchun xizmat qiladigan shaxs sifatida ulg'ayishiga ishonch bildiraman va Yoshlar ittifoqi tomonidan beriladigan imtiyozga tavsiya etaman.

2023-yil 19-fevral

(imzo)

Shomurodov Umidbek

13. Ushbu TAVSIYANOMA matnining raqamlab ko'rsatilgan bandleri mazmuniga oid TO'G'RI hukmni aniqlang.

- A) Matnning ikkinchi qismida tavsiyanomani taqdim etishdan ko'zlangan maqsad bayon

qilingan.

- B) Matnning har uchala qismida nomzod haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan.
 C) Matnning birinchi qismida mukofotga tavsiya etish shartlari bayon qilingan.

D) Matnning birinchi qismida tavsiya beruvchi shaxs haqida ma'lumot mavjud.

14. Ushbu TAVSIYANOMA matnining raqamlab ko'rsatilgan qaysi band(lar)ida imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 2

15. Ushbu TAVSIYANOMA matniga asoslangan holda gapni TO'G'RI davom ettiring. "Sherobod Education" o'quv markazi o'quvchisi Abdullayev Muhammad Abdulrahmon o'g'li...?

A) fan va sport sohasida yurt ravnaqiga munosib hissa qo'sha olgan.

B) Yoshlar ittifoqining imtiyoziga ega bo'lgan.

C) ona tili va adabiyotdan tashqari aniq fanlarga ham qiziqadi

D) 2020-2021-o'quv yilida ona tili va adabiyot fanidan viloyat bosqichida birinchi o'rinni egallagan



16. Suratdagi adibga tegishli bo'lmagan ma'lumot toping

A) Uning "Okopdan xatlar" nomli kitobi jamlangan she'rlarida urushning butun dahshati ro'yirost tasvirlangan.

B) Uning bastakor Jiganov bilan hamkorlikda yaratgan "Oltin soch" operasi davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

C) U sof muhabbat, samimiy insoniy kechinmalar aks ettirilgan "Xat tashuvchi" poemasi muallifidir.

D) Yoshligida rassom yoki qo'g'irchoq yasovchi usta bo'lishni orzu qilgan

17. Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

«Qarindoshlariga zakot bergan odamga ikkita savob tekkaydir biri qarindoshlariga oqibat qilgani uchun, ikkinchisi?»

A) oqibatli bo'lgani uchun

B) mulkdor bo'lgani uchun

C) zakot bergani uchun

D) qarindoshi bo'lgani uchun

18. Bugungi kunda har bir xalq umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini o'rganishga intilmoqda. Ushbu gap haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang.

A) Ushbu gapda fe'lli so'z birikmasi mavjud.

B) yasama so'zning yasama so'zga tobelanishi kuztatiladi

C) olmoshning ma'nosiga ko'ra bir turi ishtirok etgan

D) yasama so'zlar affiks usulida yasalgan

G'azalni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring

1. Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,

Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

2. Dudi ohim shu'lasini husning daboristonida

Misrayi barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.

3. Sarvi nozim, sendin ayru nahli ohim bo'ldi xam,

Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit.

4. Ular nechakim sabr ta'mirini bunyod ayladim,

Ashk selobida vayron o'ldi obodim, eshit.

5. Barcha yor-u oshnodin aylading begonalig

Necha kunlar bo'ldi, hargiz qilmading yodim, eshit.

6.Kelki, bir soat seni ko'rmoq uchun mushtoqmen,

Telba bo'ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit.

7.Nodira, bodi sabodin sanga irsol etgali

Qildi insho bu g'azalni tab'i noshodim, eshit.

19.G'azal haqida **noto'g'ri** hukm toping .

- A) mutloq qofiyadan foydalanilgan
- B) dodim - faryodim - ozodim - shamshodim - obodim - yodim — parizodim – noshodim so'zlari qofiya bo'lib kelishi kaztiladi
- C) Shayx so'nonning xristan qizini sevib boshqa dinga o'tib ketishi mohirona tasvirlangan
- D) Nodira eshit g'azalini turmush o'rtog'i Amir Umarxonga bag'ishlagan

20.Eshit g'azali haqida **to'g'ri** hukmni toping.

- A) G'azalda umrni mazmunli,samarali o'tkazish g'oyasi targ'ib etilgan
- B) Ikkinchi baytda ustalik bilan oshiqning hijron (ayriliq) kechasida sahargacha oh chekkani, bu charxi falakka yetgani aytiladi. Birinchi misra oxiridagi «moh» so'zi bilan ikkinchi misra boshidagi «oh» o'zaro ohangdoshlik paydo qilganki, bu ham shoirning yuksak badiiy mahoratidan dalolat beradi.
- C) Bu da'vat insonni hayotda yuksak pog'onalami ko'zlab yashashga undaydi. Dunyo - hayratxona. Uning sir-asrorini, go'zalligi, jozibasidan zavq olish kerak. Shu bilan birga, hayot - vaqtincha bevafo. Shuning uchun unga ko'p bog'lanmasdan, undan yuksakroq narsaga Allohga muhabbat qo'ygan oshiqlarga ergashish lozim.
- D) shoira yorining tik qomatini, aksincha, ishqiy iztiroblari oqibatida o'zining tik qomati bukilgani holatlarini tasvirlash maqsadida mum- loz she'riyatimizda an'anaviy bo'lgan daraxtlar, bog'liq «sarvi ozod», «sarvi noz», «naxli oh», timsollardan mahorat bilan foydalanadi.

21. **2-bayt** mazmunidagi fikrni aniqlang.

- A) yorning qomatini sarv daraxtday tik ekanligini tasvirlagan
- B)Qalb jarohati tufayli oshiqning ko'zlaridan qonli yosh oqadi.

C)Oshiqning ko'ngil jarohatini ko'z yoshlari elga ma'lum aylaydi.

D)El daryo suviga qarab unda baliq bor yoki yo'qligini bilib oladi.

22. Gohida qiyinchilikni yengib o'tishdan ko'ra uni aylanib o'tishga yoki hiyla-nayrang ishlatib, o'z maqsadiga erishishga harakat qiluvchi kimsalar bo'ladi. Ular, balki, ba'zida niyatlariga yetarlar ham. Biroq bu uzoq davom etmaydi. Yuqoridagi parcha Ezopning qaysi masali haqida ekanligini toping .

- A) bo'ri bilan laylak B) ustiga tuz ortilgan eshak
- C) eshak va baqalar D) kiyik va tokzor

23. Qaysi qatorda qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud .

- A) Olov o'tinni kuydirib kul qilgani kabi, hasad savob amallarni yeb bitiradi Haqiqatdan qo'rqqan odam yolg'onning panasiga berkinadi
- B) Ishda to'g'rilik birovning nafsiga, moliga xiyonat qilmaslik, so'zga to'g'rilik har vaqt rost so'zlamaklikdur
- C) Haqiqatdan qo'rqqan odam yolg'onning panasiga berkinadi
- D) Uning esiga haligi mish-mishlar tushib, yuragi bigiz sanchganday og'ridi

24.**Qismlari kelishik va ko'makchilarsiz bog'langan gap berilgan javobni toping.**

- A) Xadicha bu ishdan o'ylanib turdi
- B) Xola,ukam qani, olib ketgani keldim
- C) Haqiqatdan qo'rqqan odam yolg'onning panasiga berkinadi
- D) Bir ovchi kaklik tutib olibdi

25. Qaysi javobda bog'langan qo'shma gap berilgan?

- A) Vijdonli kishini ta'qib etish mumkin, ammo sharmanda qilish mumkin emas.
- B) Kechqurun otam keldi unga butun voqeani aytib berdim.
- C) Ortiqcha g'urur obro'yingni yo'q qilur, shuning uchun o'zingni boshqalardan baland tutma.
- D) Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim.
26. „yumshoq“ so'zi o'z ma'nosida kelgan javobni toping.
- A) Mo'min chol kichiklarga doim yumshoq gapirardi
- B) Xonondaning yumshoq ovozi muxlislarga manzur keldi
- C) Kelgan mehmonlarga yumshoq non tortiq

qilindi

D) yumshoq muomila hammaga yoqadi

27. Qaysi javobda "Ravshan" dostoni voqealari bayoni xato talqin qilingan?

A) Voqealar so'ngida Shirvon yurtiga Aynoq kal podsho, ukalar esa vazir qilib tayinlanadi.

B) To'rt aka-uka kallar mard, tanti, ziyrak va aqlli kishilar timsoli hisoblanadi.

C) Aka-uka kallar kampir enaning iltimosi bilan Ravshanni qutqarishga bel bog'lashgan edi.

D) Go'ro'g'li Ravshanning Gulanorga sovchi bo'lib borish haqidagi iltimosini rad etadi

Matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

Hind dengizida bir savdogar bor edi. U savdo-sotiq ishlarida juda **mohir** edi. Uning dimog'iga savdo moyasi o'rnashib olib, suvga g'arq bo'lish xayoliga ham kelmasdi. Bir mamlakatda o'n kun turmas, savdosi tugagach, yana suv sari yo'l tutar edi. U dengizni har xil ofatlardan holi deb o'ylab, yillar shu yanglig' safar qildi. U Makka atrofini suvda necha bor aylanib o'tgan bo'lsa-da, uning yaqiniga yetgach, o'z vazifasini ado etmay qaytardi. Kishilar unga hajni ham bajarish kerak, deb aytar edilar. Ammo pul hirsu savdogarni u tomon borishga yo'l qo'ymas edi. Bir kun dengizda bo'ron ko'tarildi. U tushgan kema goh osmonga, goh pastga tushib ketar edi. Savdogar savdo ishlariga g'arq bo'lganidek uning kemasi ham dengizda g'arq bo'ldi. Dengizda suzish xayoli haj sari yo'l bermadi. Oxir-oqibatda u katta bir baliqqa yem bo'ldi

28. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'z bilan ma'nodoshlik hosil qilgan gap qatnashgan javobni toping.

- A) Xoltoy juda ziyrak bola.
- B) Dangasalik insonni zalolatga boshlaydi.
- C) Mo'min chol ustamon odam.
- D) Yoshlar hamma ilimni puxta egallamoqda

29. Matn haqidagi to'g'ri g'oyani toping.

- A) Inson dunyoga bir marta kelishi unda shod-hurram yashash g'oyasi ilgari surilgan
- B) Gohida qiyinchilikni yengib o'tishdan ko'ra uni aylanib o'tishga yoki hiyla-nayrang ishlatib, o'z maqsadiga erishishga harakat qiluvchi kimsalar bo'ladi
- C) Dunyo o'tkinchi bu dunyoda hech narsa abadiy emasligi dunyo nematlari bilan ovunib qolmaslik g'oyasi ilgari surilgan
- D) Ortiqcha g'urur obro'yingni yo'q qilur, shuning uchun o'zingni boshqalardan baland tutmamaslik g'oyasi ilgari surilgan

30. Ajratib ko'rsatilgan gapda qaysi gap bo'lagi uyushib kelganini toping.

- A) Hol B) Aniqlovchi C) To'ldiruvchi D) Ega

